

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil).– 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Nazirov Sardor

BIR MAVSUMDA BUG'DOY VA PAXTA YETISHTIRISHNI TA'MINLAYDIGAN
ELEKTROTEXNOLOGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI 5-8

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Yodgorov Normumin, Amirqulova Nigora

INDIGOFERANING SUG'ORISH MUDDATLARI VA MEYORLARI 9-12

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU UBAYDA IBN al-JARROHNING TIBBIYOT TARIXIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSI 13-15

IQTISODIYOT FANLAR

Mengniyozov Anvar

JAHONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING EVOLYUTSIYASI 16-20

FALSAFA FANLARI

Nabiyev Sherzodjon

KIBERAGRESSIYA FENOMENI VA YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLARI 21-26

FILOLOGIYA FANLARI

Nasriyev Nurullo

ZAMONAVIY XALQARO AXBOROT BOZORIDA MEDIABIZNES TUSHUNCHASINING
AHAMIYATI 27-28

YURIDIK FANLAR

Xursanov Shamsiddin

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SHARIAT OMILI 29-33

PEDAGOGIKA FANLARI

Sodiqova Gulnora

ISH BERUVCHILAR ISHTIROKIDAGI KASBIY TA'LIM DASTURLARINI RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA QILISH 34-39

Ganiyev Elyorbek

TALABALARDA QONUNIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH METODIKASI 40-45

Xabibullayev Alimardon

TALABALAR MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHMA TA'LIMNING INSTITUTSIONAL
BOSHQARUV MEXANIZMLARI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA) 46-51

Nigmatova Nozimaxon

OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT
TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH 52-54

Abdullayeva Asila

TARIXIY VA FALSAFIY BILIMLARNI BIRLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIMDA
INNOVATSION PEDAGOGIK METODLARNI TATBIQ ETISH 55-60

Ergasheva Nigora

PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 61-64

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI METODIK SHART-SHAROITLAR 65-68

Shamsiddinova Durdona

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QILGAN MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA METAKOGNITIV O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI 69-71

Yuldasheva Maftuna

PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA VA PSIXOLOGIK TA'SIR USULLARINI O'RGATISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR 72-77

Butayev Norbek

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI 78-80

Rajapov Sulaymon

ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 81-84

Samandarova Nargiza

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV DOIRASIDA IQTISODCHILARNING KASBIY NUTQ TAYYORGARLIGINI TAKOMILASHTIRISH 85-87

Sobirov Qobuljon

BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI 88-93

Raxmanova Nigora

ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA AN'ANAVIY SHOGIRDLIK TIZIMINING UYG'UNLIGI 94-99

Xalberdiyev Ziyodilla

TA'LIM MENEJMENTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 100-102

Kamolov Baxtiyor

EKOLOGIK TARBIYA VA TURIZM FANLARI INTEGRATSIYASI ORQALI TALABALAR MADANIY-MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH 103-108

TIBBIYOT FANLARI

Сайдуллаева Мукаддам, Абдукадирова Лазиза

ЛАТИНСКИЕ И ГРЕЧЕСКИЕ ИСТОКИ МЕДИЦИНСКИХ ЭМБЛЕМ И ИХ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ 109-115

SIYOSIY FANLAR

Уразбаев Абатбай

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 116-120

OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Nigmatova Nozimaxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: comrehensible@gmail.com

Tel: +998949831705

ORCID: 0009-0002-0552-4068

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayoniga generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash metodikasining nazariy asoslarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda generativ sun'iy intellektning didaktik imkoniyatlari, lingvodidaktik ahamiyati, shuningdek, metodik integratsiya jarayonining tamoyillari va pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Natijada ingliz tilini o'qitishda generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan nazariy-metodik yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: generativ sun'iy intellekt, ingliz tili ta'limi, oliy ta'lim, metodika, raqamli pedagogika, til kompetensiyasi.

IMPROVING THE THEORETICAL BASIS OF THE METHODOLOGY OF INTEGRATION OF GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH IN HIGHER EDUCATION

Nigmatova Nozimaxon Ulugbek qizi

Independent researcher at Fergana State University

Annotation. This article discusses the issues of improving the theoretical foundations of the methodology of integrating generative artificial intelligence technologies into the process of teaching English in higher education institutions. The study analyzes the didactic capabilities of generative artificial intelligence, its linguodidactic significance, as well as the principles and pedagogical conditions of the methodological integration process. As a result, theoretical and methodological approaches aimed at the effective use of generative artificial intelligence technologies in English language teaching are proposed.

Keywords: generative artificial intelligence, English language education, higher education, methodology, digital pedagogy, language competence.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i3/n11>

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng miqyosda joriy etilishi oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'qitish mazmuni va metodikasini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Bugungi kunda ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilm-fan, innovatsiya va kasbiy faoliyatning muhim komponentiga aylanganligi sababli uni o'qitishda an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolish ta'lim samaradorligini ta'minlay olmaydi. So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarining, xususan generativ sun'iy intellekt tizimlarining kirib kelishi o'qitishning didaktik asoslarini yangilash, ta'lim subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyatlarini

sezilarli darajada kengaytirdi. Xorijiy tadqiqotchilar (J. Holmes, M. Bialik, C. Fadel) ta'kidlaganidek, generativ sun'iy intellekt ta'lim jarayonida bilimlarni tayyor holatda berishdan ko'ra, ularni faol konstruksiya qilishga xizmat qiluvchi samarali raqamli muhitni shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini metodik jihatdan asoslangan holda integratsiyalash, ushbu jarayonning nazariy asoslarini takomillashtirish bugungi pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi o'quv jarayonining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Xususan, ingliz tilini o'qitishda ushbu texnologiyalar:

ta'lim jarayonini talabani individual ehtiyojlari, bilim darajasi va o'rganish sur'atiga mos holda tashkil etish;

mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va reflektiv faoliyatni rivojlantirish;

og'zaki va yozma nutq kompetensiyalarini real kommunikativ vaziyatlar asosida takomillashtirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

R.Marzano va H.Brownning tadqiqotlarida qayd etilishicha, til o'rganish jarayonida interaktiv va moslashuvchan raqamli vositalardan foydalanish talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda o'quv natijalarining barqarorligini ta'minlaydi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tili ta'limiga joriy etishda metodik asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, ularning didaktik vazifalari va chegaralarining aniq belgilanmaganligi muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan ushbu holat generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiyalash metodikasining nazariy asoslarini chuqur ilmiy tahlil qilish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalari til, nutq, tasvir, audio va multimodal kontentni avtomatik ravishda yaratish, qayta ishlash va moslashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan zamonaviy raqamli tizimlar majmuasidir. Ta'lim jarayonida ushbu texnologiyalar o'quv materialini faqat yetkazib beruvchi vosita sifatida emas, balki bilimlarni faol konstruksiya qilishga xizmat qiluvchi intellektual muhit sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz tilini o'qitishda generativ sun'iy intellekt texnologiyalari quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

o'quv materiallarini avtomatik modellashtirish va darajalash orqali murakkab lingvistik birliklarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishni ta'minlash;

talabani individual o'rganish traektoriyasini shakllantirish va uning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish;

reflektiv va interaktiv o'qitish muhiti yaratish orqali kommunikativ faoliyatni faollashtirish.

L.Vygotskiy va J.Brunerning konstruktivistik qarashlariga tayangan holda aytish mumkinki, generativ sun'iy intellekt talabani yaqin rivojlanish zonasini kengaytirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tili ta'limiga integratsiyalash metodikasi bir qator zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayanadi. Jumladan:

kompetensiyaviy yondashuv, bunda talabalarda lingvistik, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi;

konstruktivistik yondashuv, bilimlarni talabning faol ishtirokida, muammoli vaziyatlar asosida shakllantirishni nazarda tutadi;

raqamli pedagogika yondashuvi, texnologik vositalarni ta'lim maqsadlari va natijalari bilan uzviy bog'lashni taqozo etadi.

Mazkur yondashuvlar uyg'unligi generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tili darslariga ilmiy asoslangan holda integratsiyalash imkonini beradi.

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o'qitishga integratsiyalash jarayoni quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanishi zarur:

ilmiylik va tizimlilik, ya'ni texnologiyalardan foydalanishda pedagogik qonuniyatlarga amal qilish;

didaktik maqsadga muvofiqlik, texnologiyalarni o'quv maqsadlariga mos holda tanlash; interaktivlik va reflektivlik, talabning faol ishtirokini ta'minlash;

etik va akademik halollik, sun'iy intellektdan foydalanishda mualliflik va mustaqil fikrlash tamoyillarini saqlash.

Ushbu tamoyillar metodik integratsiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiyalash metodikasining nazariy asoslarini takomillashtirish oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ilmiy asoslangan metodik yondashuv orqali ushbu texnologiyalarni joriy etish talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda kreativ fikrlash salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. 201 b.
2. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policymakers. Paris: UNESCO Publishing, 2022. 68 b.
3. Brown, H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. New York: Pearson Education, 2018. 410 b.
4. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2017. 389 b.
5. Marzano, R. J. The Art and Science of Teaching. Alexandria, VA: ASCD, 2017. 221 b.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil). – 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.